

YANGI YIL YARMARKASI



Yangi yil bayrami arafasida aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida Termiz shahrida joylashgan "Markaziy dehqon bozori"da chorvachilik, parrandachilik, asosiy turdagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari mavjud yangi yil savdo yarmarkasi o'z ish faoliyatini boshladi.



Yarmarkada shahrimiz aholisi barcha turdagi qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini bozor va do'konlardagidanda hamyonbop narxlarda sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.



Yarmarkada qo'y, mol go'shti, meva, sabzavotlar, un, guruch, yog' va shu kabi 30 ga yaqin mahsulotlarni xarid qilish imkoniyati yo'lga qo'yilgan.